

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEV SHERZOD GULBOY O‘G‘LI

**B.X.KARMISHEVANING SURXON-SHEROBOD VOHASIDAGI
ETNIK GURUHLARNI O‘RGANISHDAGI O‘RNI**

07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

To‘rayev Sherzod Gulboy o‘g‘li

В.Х.Кармышеванинг Surxon-Sherobod vohasidagi etnik guruhlarini o‘rganishdagi o‘rni.....3

Тураев Шерзод Гулбой угли

Роль В.Х.Кармышевой в изучении этнических групп в оазисе Сурхан-Шерабад.....25

Turaev Sherzod Gulboy ugli

The role of V.Kh.Karmysheva in the study of ethnic groups in the Surkhan-Sherabad oasis.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEV SHERZOD GULBOY O‘G‘LI

**B.X.KARMISHEVANING SURXON-SHEROBOD VOHASIDAGI
ETNIK GURUHLARNI O‘RGANISHDAGI O‘RNI**

07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar1510 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Mirzayev Djalaliddin Zayniyevich
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar

Fayzullayeva Mavlyuda Xamzayevna
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Aqchayev Farrux Shavkatovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «2» iyun soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino, 4-qavat, majlislar zali). Tel.: +998 (76) 223 13 11; e-mail: terdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (392 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «15» may kuni tarqatildi.
(2026-yil «15» may dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

T.R. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

[Handwritten signature]

O.A. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

[Handwritten signature]

X.E. Xolmuminov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning turli mintaqalarida muammoli etnosiyosiy jarayonlarning kuchayib borayotganligi natijasida insoniyat tarixida yangi transformatsion bosqichlarni paydo bo'lishiga va turli xalqlarning kelib chiqishi, madaniy merosi, ijtimoiy taraqqiyoti hamda milliy o'zligini yangicha yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Mazkur jarayonni jahon hamjamiyati miqyosida mukammal o'rganish borasida 1948-yildan YUNESKO homiyligida faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro antropologlar va etnograflar Ittifoqi (ICAES) tomonidan ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish borasida keng ko'lamli amaliy ishlar bajarilmoqda.

Bugungi kunda ilm-fan rivojlangan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi masalalarini o'rganuvchi ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixiga oid ilmiy loyihalar amalga oshirilib, xalqlarning turmush tarzini, moddiy-ma'naviy madaniyatini, milliy o'zligini anglash borasidagi jarayonlarni o'rganishda muayyan natijalarga erishildi. Bu sohada xalqlarning hududiy joylashuvi, ularga turli guruhlarning birlashishi, urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini hamda marosimlarining o'ziga xos xususiyatlarni tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda millatlararo o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, o'zbek xalqining kelib chiqishi, etnik tarixi, an'anaviy xo'jaligi va moddiy-ma'naviy madaniyatdagi o'ziga xoslikni o'rganish borasida amaliy ishlar bajarilmoqda. Sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarning tadqiqotlari va merosi alohida ahamiyatga ega bo'lib, "Buyuk tarixda hech narsa izzsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir¹" ekanligi mavzuning zaruriyatini belgilaydi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Yangi taraqqiyot strategiyasida qabul qilingan amaliy islohotlar samarasi tufayli jamiyatda milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43–sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/34> [Murojaat etilgan sana: 01.02.2026-yil]

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

PF-158-son “O‘zbekiston — 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ilmiy tadqiqot dasturining ustuvor yo‘nalishlari negizida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yirik etnograf B.X.Karmisheva (1916-2000) ilmiy merosi hozirga qadar maxsus ilmiy tahlil obyekti sifatida o‘rganilmagan. B.X.Karmisheva merosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tahlil qilgan ishlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi³:

Birinchi guruhga sovet davrida tadqiqotchilari maqolalari kiradi. Ular B.X.Karmisheva asarlariga taqrizlar yozishgan, olimaning ilmiy xulosalarini muhokama qilishgan⁴.

Ikkinchi guruhga xorijiy mualliflarning ishlari kiradi⁵. Ularda B.X.Karmishevaning hayoti va ijodi bilan birga Markaziy Osiyodagi turli elatlarni o‘rganishdagi hissi tahlil qilingan⁶.

Uchinchi guruhga esa mustaqillik davrida o‘zbek olimlari tomonidan

³ Karmisheva B.X. asarlaridan foydalanganlar, ularga munosabat bildirganlar shu qadar ko‘pki, bir dissertatsiya doirasida barchasini qamrab olish mumkin emas. Shuning uchun biz 07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo‘nalishida ishlagan va ishlayotgan mualliflar bilan cheklandik.

⁴ Алексеев В.П., Басилов В.А. Рецензия на кн.: Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). М., 1976 // Советская этнография. – 1977. – № 5. – С. 171–174; Шаниязов К.Ш. Рецензия на кн.: Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана // ОНУ. – 1977. – № 4. – С. 64–66; Руш В., Штейн Л. Международный симпозиум «кочевники в истории и современности» (Лейпциг, 11–12 декабря 1975 г.) Советская этнография. 1976, № 3. – С. 157–160.

⁵ Губаева С.С. Балкис Халиловна Кармышева (13.07.1916 – 09.10.2000) // Этнографическое обозрение. 2001. № 3. – С. 154–157; Shu muallif. Губаева С.С. Слово об учителе // Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии (далее: Оазисы Шелкового пути...). – М., 2018. – С. 21–25; Shu muallif. Б.Х. Кармышева и ее творчество // Кармышева Б.Х. Каратегинские киргизы. – М., Наука, 2009. – С. 3–18; Абашин С.Н. «В лабиринтах этногенеза и этнической истории»: труды Б.Х. Кармышевой как наследие советской этнографии // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 32–45; Лунина Е.О Балкис Халиловне Кармышевой // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 17–23; Салимов Т. У. Воспоминание о Б.Х. Кармышевой // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 90–95; Список основных работ доктора исторических наук Б. Х. Кармышевой. (К 40-летию научной деятельности). Советская этнография. 1986. № 4. – С. 146–148.

⁶ Додхудоева Л. Н. «Фокусный центр» исследований профессора Б.Х. Кармышевой в Таджикистане // Оазисы Шелкового пути... – С. 68–80; Джураева Н. Полевые исследования этнических групп киргизов Джиргаталя Б.Х. Кармышевой в 1954 г. // Историк (научный журнал). – М., 2016. – № 2 (6). – С. 59–62; Джураева Н. Вопросы традиционной культуры национальных меньшинств в трудах Б.Х. Кармышевой 70–80- х гг. XX века // Историк (научный журнал). – М., 2015. – № 2 (6). – С. 122–126; Джураева Н. Фотоколлекция этнографа Б.Х. Кармышевой и её значение для исследования культуры этнических меньшинств Центральной Азии // Вестник педагогического университета. – Душанбе. 2013. – № 1 (50). – С. 95–97; Юсуфбекова З.У., Шовалиева М. С. Карлуки в дневниковых записях Б.Х. Кармышевой // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 81–90.

yozilgan maqolalar va dissertatsiyalardagi tahlillar kiradi⁷.

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunga kelib, nafaqat O'zbekiston hududida, balki janubiy O'zbekiston mintaqasida yashab kelayotgan xalqlarning joylashuvi, ularning shakllanishi tarixi, etnogenezi va tarixshunosligi masalalari ilmiy doiralarda alohida tadqiqot obyektiga aylangan. Xususan, xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati, an'ana va qadriyatlaridagi o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kuzatilgan transformatsion jarayonlar zamonaviy etnologik tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. M. Fayzullayeva⁸, N. Tursunov⁹, A. Qurbonov¹⁰, M. Usmonov¹¹, I. Umarov¹², G. Ahmedova¹³, S. Ahmedov¹⁴, O. Do'lanov¹⁵, I. Qarshiyev¹⁶, M. Ro'ziyeva¹⁷ kabi ilmiy tadqiqotchilar turli etnik guruhlarining etnografiyasining turli jihatlarini o'rganganlar. Ularning ishlari xalqlarning ijtimoiy tuzilishi, an'anaviy xo'jalik madaniyati, turmush tarzi, marosim va urf-odatlarining zamonaviy sharoitda qanday o'zgarib borayotgani, shuningdek,

⁷Ртвеладзе Э. В. Балкис Халиловна Кармышева (малоизвестные страницы биографии и экспедиционной деятельности) // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 28–31. Бўриев О., Рахмонов Ф. Ўзбеклар этник тарихининг толмас ва етук тадқиқотчиси эди // Водийнома. – Андижон, 2021. – № 4 (22). – Б. 100–104; Аширов А., Раҳматиллаев Х., Абдухамидов И. Ўзбек халқи этнографиясини ўрганишда ўчмас из қолдирган олима // ФарДУ. Илмий хабарлар. Фарғона. 2017. – № 2. – Б. 53–55; Мирзаев Дж.З. Сурхондарё элатлари: ўрганилиши муаммолари ва истиқболлари // “Бойсун баҳори” очик фольклор фестивалини “Жаҳон цивилизациясида Бойсуннинг моддий ва маънавий маданияти” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами.– Т., Янги нашр, 2019. – Б. 77–79; Shu muallif. Проблемы этнической истории Центральной Азии. На примере приграничного региона Амударья : монография / Д.З. Мирзаев. – Витебск : ВГУ имени П.М. Машерова, 2024. – С. 189; Shu muallif. Наследие Б. Х. Кармышевой как фундаментальная основа изучения этнических общностей Южного Узбекистана // КАЭР 2025. Тезисы докладов XVI Конгресса антропологов и этнологов России. 2–6 июля 2025 г. – С. 187–188; Тағбаев А.А. Б.Х.Кармышева асарларида “илк қабилалар”га оид этнонимлар масаласи // Ижтимоий–гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – Самарканд, 2023. – № 11 (3). – С. 15–23; Hamrayev J.A. The Role of B.Kh. Karmisheva in Studying the Ethnography of the Surkhan Oasis // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2024.– № 5 (2). – P. 5–8; Насимов А. Элшунос олима Б.Х.Кармышева тадқиқотларида Жанубий Ўзбекистон этнографияси муаммолари талқини // Фан, тараққиёт ва ёшлар. Илмий-амалий конференция материаллари. – Қарши, – 2009. – Б. 136–140.

⁸ Fayzullayeva M.X. O'zbek an'anaviy taomlari va tanovul madaniyati (Surxon vohasi materiallari asosida) Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.

⁹ Tursunov N.N. Janubiy O'zbekiston aholisi moddiy madaniyatidagi transformatsion jarayonlar. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Termiz, 2021.

¹⁰ Курбонов А. Шимолий Сурхон воҳаси аҳолиси анъанавий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи ярми). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2009.

¹¹ Усмонов М. Ш. Жанубий Ўзбекистон қўнғиротлари (XIX аср охири – XX асрнинг биринчи ярми, тарихий – этнологик таҳлил) Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2009.

¹² Umarov I. Ko'hitangtog' qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022.

¹³ Ahmedova G. O'zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an'analarning etnomadaniy jarayonlarga ta'siri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022.

¹⁴ Ahmedov S. Surxon vohasi tojiklarining etnomadaniy jarayonlardagi o'rni (XX asrning oxiri va XXI asrning birinchi yarmi). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.

¹⁵ Do'lanov O. Surxon vohasi yuz (juz) larining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.

¹⁶ Qarshiyev I. Surxon – Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.

¹⁷ Ro'ziyeva M. “Surxon vohasi lo'lilari an'anaviy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari” (XIX asr oxiri – XXI asr boshi). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2023.

tarixiy-etnografik jarayonlarning izchil tahliliga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. B.X.Karmisheva tadqiqotlaridan keng foydalangan A.Qayumovning ilmiy ishlarida Surxon-Sherobod vohasi etnik tarix masalalari yoritilgan. U o‘z ishlarida ushbu mintaqada yashovchi etnik guruhlarning shakllanishi, ularning tarixiy ildizlari, qabilaviy va urug‘lararo aloqalari hamda hududiy taqsimoti bo‘yicha batafsil ma’lumotlar keltirgan¹⁸. Alohida etnik guruh sifatida arablarni tadqiq etgan olim Sh. Iskandarov ularning O‘zbekiston hududida kirib kelishi tarixi, madaniy, ijtimoiy va etnik xususiyatlari, shuningdek, tarixiy va zamonaviy sharoitlarda yuzaga kelgan madaniy transformatsiyalarini keng qamrovli tarzda tahlil qilgan¹⁹.

Shu tariqa, mavzuning tarixshunosligini tahlil qilish natijasida xulosa qilib aytish mumkinki, B.X.Karmishevaning Surxondaryo tarixi va etnografiyasini o‘rganishdagi hissasi shu kunga qadar maxsus, alohida mavzu sifatida o‘rganilmagan va mazkur dissertatsiya uning rolini aniqlash yo‘lidagi ilk ilmiy urinishdir.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ATD-1 “O‘zbekistonning janubiy hududlarida moddiy va ma’naviy madaniyat” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – B.X.Karmishevaning hayoti va faoliyatini, Surxon-Sherobod vohasidagi etnik guruhlarni o‘rganishga doir merosini tahlil qilish va uning O‘zbekiston tarixi va etnografiyasi uchun ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Belgilangan maqsaddan kelib chiqib, dissertant quyidagi vazifalarni hal etishni oldiga qo‘ydi:

B.X.Karmisheva hayoti va faoliyatining asosiy bosqichlarini yoritishga oid ma’lumotlarni tahrirlash, yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish;

B.X.Karmisheva ilmiy merosining yo‘nalishlarini tahlil qilish, tadqiqotchining nazariy va uslubiy yondashuvlarini oydinlashtirish;

B.X.Karmishevaning Surxondaryo elatlari sohasidagi ilmiy ishlarining o‘ziga xos qirralarini hamda yo‘nalishlarini aniqlashtirish, ularni dala tadqiqotlari asosida tahlil etish;

Surxondaryo hududida o‘zbeklarning tarixi sahifalarini va dislokatsiyasi xususiyatlariga doir B.X.Karmishevaning xulosalarini zamonaviy dala tadqiqotlari ma’lumotlari bilan qiyoslash;

Surxondaryo hududida subetnik elatlar tarkibi va lokatsiyasini, ularning assimillatsiya va akkulturatsiya jarayonidagi tarixiy transformatsiyasini tahlil etish;

¹⁸ Каюмов А. Этническая ситуация на территории Южного Узбекистана в XIX – XX века (по материалам Сурхан – Шерабадской долины). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 2011.

¹⁹ Iskandarov Sh.A. O‘zbekiston arablari etnomadaniy identikligining rivojlanishi va transformatsiyasi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.

Surxondaryo hududida etnik guruhlar dinamikasining lokal xususiyatlarini dala tadqiqotlari asosida belgilab berish;

tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida B.X.Karmishevaning hayoti va ilmiy faoliyati hamda uning Surxondaryo aholisi tarixi va etnografiyasini o'rganishdagi rolini asoslash belgilangan.

Tadqiqot predmetini B.X.Karmishevaning Surxondaryo dala materiallari, uning ilmiy ishlari, qarashlari va takliflari, shuningdek, qiyosiy tahlillarga oid etnologik ma'lumotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada obyektivlik, tarixiylik, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va og'zaki tarix usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilmiy muomalaga birinchi marta kiritilayotgan qo'lyozmalar (1957–1986-yillardagi dala tadqiqotlari kundaligi), tarixiy-etnologik asarlar, xaritalar hamda arxiv hujjatlari asosida Surxon-Sherobod vohasining etnogenezi va etnik tarixiga doir umumiy tavsifni ilk bor ilmiy jihatdan asoslab bergan B.X.Karmishevaning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid yangi ma'lumotlar aniqlangan;

Sovet va xorijiy ilmiy nashrlarni tizimli tahlil qilish natijasida B.X.Karmishevaning etnografiyaga oid ilmiy ishlari ro'yxati (80 ta ilmiy ish) etnologik qarashlari hamda amaliy tadqiqotlarining nazariy asoslarini o'zida mujassam etgan, ilgari e'lon qilinmagan qo'lyozmalari (4 ta maqola va etnografik-geografik chizmalariga doir materiallari, jumladan Surxondaryo elatlariga bag'ishlangan tadqiqotlari birinchi marta to'liq tarkibda shakllantirilganligi ilmiy asoslangan;

Surxondaryo hududining etnografik o'rganilishida B.X.Karmishevaning etnografik manbalarni bosqichma-bosqich tizimlashtirib tahlil qilganligi hamda uning ilmiy faoliyatida bevosita ishtirok etgan shaxslar bilan olib borilgan dala tadqiqotlari materiallari asosida mintaqaning etnik tarixini yoritishga doir yondashuvlari va metodologik tamoyillari shakllanganligi, shu bilan birga qabilaviy va etnik uyushmalarning hududiy joylashuvi, nomlanishi, etnik atamalarni qiyosiy tahlil qilishi orqali B.X.Karmishevaning etnologiya fanidagi ilmiy o'rni va ahamiyati ko'rsatilgan;

Surxondaryoning etnografik o'rganilishini tizimli tahlil qilgan B.X.Karmishevaning ilmiy faoliyati tufayli vohaning etnik qiyofasini aks ettiruvchi xarita yaratilganligi, mahalliy etnologiya yo'nalishida ilmiy maktablarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi, shu bilan birga mazkur jarayondagi yutuqlar, muammolar va istiqbollar yoritib berilganligi natijasida voha aholisining o'troq va ko'chmanchi guruhlari etnik tarkibi, tarixiy joylashuvi hamda etnik dinamikasining lokal xususiyatlari zamonaviy dala tadqiqotlari asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Tadqiqotning amaliy natijalari tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, dala tadqiqoti materiallari hamda Karmishevaning ilmiy

merosi va tadqiqotlari asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Ushbu manbalar asosida Surxondaryo elatlarining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, hududiy joylashuvi, shuningdek yarim ko'chmanchi va o'troq aholi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy munosabatlar ochib berildi. Olingan ilmiy xulosalar asosida mazkur jarayonlarni chuqurroq anglash va kelgusida ularni yanada samarali o'rganishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda zamonaviy tarix fanida e'tirof etilgan yondashuv va usullar qo'llanilganligi, tarixiy va etnologiyaga oid adabiyotlar hamda boshqa yondosh ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotlaridan foydalanilganligi, B.X.Karmisheva hayoti va faoliyatini etnologik jihatdan tahlil etishda arxivlardagi birlamchi manbalarga asoslanib xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli davlat muassasalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tarixiy manbalar, arxiv materiallari, maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy adabiyotlar va boshqa manbalar asosida B.X.Karmishevaning ekspeditsiya bosqichlariga oid tarixiy izlanishlardan muhim tadqiqot manbasi sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, keltirilgan materiallar va xulosalar etnografiya bo'yicha ilmiy ishlar yaratishda, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidagi o'quv muassasalarining ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarida o'tiladigan "O'zbekiston tarixi", "Surxondaryo tarixi", "Etnografiya", "Tarixiy o'lkashunoslik" kabi fanlarini o'qitishda darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishga hamda tarix bo'yicha maxsus kurslar tashkil etishda xizmat qiladi.

Tadqiqotda B.X.Karmishevaning ekspeditsiya bosqichlari o'rganilib, shuningdek, olimaning Surxondaryo tarixi va etnografiyasiga oid ilmiy merosi tahlil qilinib, ilk bor e'lon qilingan manbalarga tayanib ilmiy natijalar aks etgan. Dissertant tarixiy manbalar, arxiv materiallari, maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy adabiyotlar va boshqa manbalar asosida B.X.Karmishevaning ekspeditsiya bosqichlarini o'rgangan. Shuningdek, u olimaning Surxondaryo tarixi va etnografiyasiga oid ilmiy merosini tahlil qilgan va shu davrda ushbu mintaqada bo'lgan g'arb olimlari ma'lumotlari bilan qiyoslagan. Nodir manbalar asosida shaxsiy xulosalar bildirgan va kerakli natijalarga erishgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar quyidagicha joriy etilgan:

Ilmiy muomalaga birinchi marta kiritilayotgan qo'lyozmalar (1957–1986-yillardagi dala tadqiqotlari kundaligi), tarixiy-etnologik asarlar, xaritalar hamda arxiv hujjatlari asosida Surxon-Sherobod vohasining etnogenezi va etnik tarixiga doir umumiy tavsifni ilk bor ilmiy jihatdan asoslab bergan B.X.Karmishevaning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid yangi ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-132-sonli "Surxon vohasi tarixiy va

etnomadaniy manbalariga oid “i-Turizm” platformasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitetining 2025-yil 21-noyabrdagi 04/11-28269-sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot xulosalariga tayangan holda mintaqaning etnomadaniy merosini ilmiy va amaliy muomalaga joriy etish, uni raqamli platformalar orqali ommalashtirish hamda yoshlar ongida tarixiy-madaniy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligi oshdi.

Sovet va xorijiy ilmiy nashrlarni tizimli tahlil qilish natijasida B.X.Karmishevaning etnografiyaga oid ilmiy ishlari ro‘yxati (80 ta ilmiy ish) etnologik qarashlari hamda amaliy tadqiqotlarining nazariy asoslarini o‘zida mujassam etgan, ilgari e’lon qilinmagan qo‘lyozmalari (4 ta maqola) va etnografik-geografik chizmalariga doir materiallari, jumladan Surxondaryo elatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlari birinchi marta to‘liq tarkibda shakllantirilganligi ilmiy asoslanganligi haqidagi ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanalida e’fira uzatilgan “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” va “Ta’lim va taraqqiyot” ko‘rsatuvlari uchun ssenariylar tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasining 2025-yil 7-noyabrdagi 05-09-1748-sonli ma’lumotnomasi). Natijada B.X.Karmishevaning ilmiy merosi keng jamoatchilikka ilmiy asoslangan va tizimli shaklda yetkazilib, milliy etnologiya va etnografiya masalalarini ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib etish, tarixiy-ilmiy bilimlarni ommalashtirish hamda tomoshabinlarning madaniy-ma’rifiy saviyasini oshirish samaradorligi yuksaldi.

Surxondaryo hududining etnografik o‘rganilishida B.X.Karmishevaning etnografik manbalarni bosqichma-bosqich tizimlashtirib tahlil qilganligi hamda uning ilmiy faoliyatida bevosita ishtirok etgan shaxslar bilan olib borilgan dala tadqiqotlari materiallari asosida mintaqaning etnik tarixini yoritishga doir yondashuvlari va metodologik tamoyillari shakllanganligi, shu bilan birga qabilaviy va etnik uyushmalarning hududiy joylashuvi, nomlanishi, etnik atamalarni qiyosiy tahlil qilishi orqali B.X.Karmishevaning etnologiya fanidagi ilmiy o‘rni va ahamiyati ko‘rsatilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024–2025-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 9-dekabrdagi 10/830-son ma’lumotnomasi). Natijada mintaqaning etnik tarixi va etnomadaniy merosini tizimli yoritishga doir ilmiy xulosalar asosida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlarini rejalashtirish va mazmunan boyitish samaradorligi oshdi.

Surxondaryoning etnografik o‘rganilishini tizimli tahlil qilgan B.X.Karmishevaning ilmiy faoliyati tufayli vohaning etnik qiyofasini aks ettiruvchi xarita yaratilganligi, mahalliy etnologiya yo‘nalishida ilmiy maktablarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi, shu bilan birga mazkur jarayondagi yutuqlar, muammolar va istiqbollarni yoritib berilganligi natijasida voha

aholisining o‘troq va ko‘chmanchi guruhlari etnik tarkibi, tarixiy joylashuvi hamda etnik dinamikasining lokal xususiyatlari zamonaviy dala tadqiqotlari asosida dalillanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2024–2025-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 9-dekabrda 10/830-son ma‘lumotnomasi). Natijada mintaqaning etnik tarixi va etnomadaniy jarayonlariga oid ilmiy xulosalar asosida ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot tadbirlarini rejalashtirish va mazmunan boyitish samaradorligi oshdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta (ulardan 9 tasi respublika va 3 tasi chet el jurnallarida) maqola, 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar e‘lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, sakkiz paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**B.X.Karmisheva hayoti va ilmiy faoliyati**” deb nomlanib, unda olimaning hayot yo‘li, ilmiy faoliyati, dala tadqiqotlari, metodologik yondashuvlari hamda uning ilmiy merosining etnografiya rivojida ahamiyati yoritiladi. Ushbu bobning birinchi paragrafi “**B.X.Karmisheva hayoti sahifalari**” mavzusidadir. Mazkur paragrafda B.X.Karmishevaning hayot yo‘li va shakllanish jarayoni, uning ijtimoiy-madaniy muhiti hamda olima sifatida kamol topishiga ta‘sir etgan asosiy omillar tahlil qilinadi. Surxondaryo etnografiyasini o‘rganish bo‘yicha ilk ilmiy tadqiqotlar olib borgan B.X.Karmisheva 1916-yil 13-iyulda Xitoyning Shinjon viloyatidagi G‘ulja shahrida tatar aholi punktida xususiy savdo shirkati xodimi oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Xalil Fatixovich Karmishev Volga bo‘yidagi cho‘l mintaqasida, Samara viloyatidagi (hozirgi Saratov viloyati)

tatarlarning qadimgi Oltata qishlog'ida mulla oilasida tug'ilgan²⁰. Xalil G'uljadan kelgan uyg'ur savdogariga xizmatchi bo'lib ishga olinadi. G'uljaga Bilqiz Xalilovnaning onasi Galiya Shaxmuhamedovna (1888–1971)ning oilasi ham Qozon viloyatidan ko'chib kelgan. Ular 1905-yilda oila qurishadi va besh qiz, bir o'g'ilni dunyoga keltirishgan²¹.

Karmishevlar oilasi 1905–1926-yillarda G'uljada yashagan. Uyg'urlar, qozoqlar, dunganlar, tatarlar va ruslar istiqomat qilgan ko'p millatli shahar Bilqizning turli madaniyatlarni o'rganishdagi birinchi tajribasi bo'ladi. Karmishevlar oilasi Ismoil Gaspiralinining "Tarjimon" gazetasini o'qigan, Qozon, Orenburg va Bokuda nashr etiladigan jurnallarga obuna bo'lgan, u yerda musulmonlar orasida mashhur bo'lgan gazetalarni o'qishgan²².

O'rta maktabni tugatgach Balqis Xalilovna oilasiga yordam berish maqsadida turli joylarda, ayrim hollarda vaqtinchalik muddatga bo'lsa-da, mehnat qildi. Karmisheva Nadirshin Qodir Yakubovich ismli tatar yigitga turmushga chiqqan. Erining otasi Saratovlik Nadirshin Yakub, onasi Nadirshina Sabira, ularning millati tatar, kasbi dehqon bo'lib, asli kelib chiqishi Oltata qishlog'idan bo'lgan. 1945-yilda Karmisheva turmush qurishi munosabati bilan Dushanbega ko'chib o'tadi²³. 1946-yilda Dilbar ismli qiz farzandni dunyoga keltirgan. Oiladagi kelishmovchiliklar oqibatida 1949-yilda eridan ajrashgan Karmisheva keyin u bilan aloqalarni umuman uzgan. Har holda sobiq turmush o'rtog'ining qayerda yashaganligi va ish joyi borasida ma'lumotga ega bo'lmagan²⁴. Oiladagi yagona farzand Baskanova Dilbar Qodirovna, Janubiy Qozog'istondagi Tulkibas tumani Novonikolayevka qishlog'ida yashagan, keyinchalik Moskvaga ko'chgan. U yerda Baskanov Leonid Vasilyevich ismli shaxsga turmushga chiqqan. 1966-yilda Yelena ismli qizi²⁵, 1973-yilda Aleksandr ismli o'g'li tug'ilgan.

B.X.Karmisheva 1945-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Tojikiston bo'limining Tarix, til va adabiyot institutiga ishga kiradi²⁶. Karmishevaning olimi, xususan etnograf sifatida shakllanishiga institut direktori M.S.Andreyev katta ta'sir ko'rsatgan²⁷. SSSR Vazirlar Soveti huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 301-215-sonli qarori bilan 1978-yil 11-avgustda katta ilmiy xodim B.X.Karmishevaga tarix fanlari doktori ilmiy darajasi berildi²⁸. O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'limining yetakchi ilmiy xodim maslahatchisi tarix fanlari doktori Karmisheva Bilqiz Xalilovna 1998-yil 28-fevralda o'z iltimosiga binoan ishdan bo'shatilgan. Olima 2000-yil 9-oktabrda 84 yoshida Moskva shahrida vafot

²⁰ Губаева С.С. Слово об учителе // Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии. – М., 2018. – С. 27.

²¹ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 227.

²² Кармышева Г.Ш. К истории татарской интеллигенции. (1890–1930-е годы): мемуары / отв. ред. С.С. Губаева. М., 2004. С. 25

²³ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 226.

²⁴ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 219–222.

²⁵ Hozirgi paytda Lunina Yelena Leonidovna Moskva shahridagi № 1514 maktabda rus tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lib ishlaydi.

²⁶ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 231.

²⁷ Mixail Stepanovich Andreyev (1873–1948) 1929-yildan SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi.

²⁸ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 218.

etdi. B.X.Karmisheva Moskva shahridagi eng katta qabristonlardan biri bo'lgan Mitinskoye qabristonida dafn etilgan²⁹.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston, xususan Surxondaryo etnografiyasini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan B.X.Karmishevaning hayoti va turmush tarzi, uning etnografiya faniga bo'lgan qiziqishi, oilaviy muammolari hamda murakkab va mashaqqatli hayot sinovlari kelgusida uning etnologik qarashlari shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Mazkur omillar, o'z navbatida, mahalliy aholini etnografik jihatdan o'rganishga bo'lgan ilmiy intilishlarining kuchayishiga zamin yaratdi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "**B.X.Karmisheva ilmiy faoliyati bosqichlari**" deb nomlangan. B.X.Karmisheva ilmiy faoliyatini har davrining ustuvor mavzulari asosida quyidagi davrlarga bo'lish mumkin: 1. 1945–1954-yillar laqay davri; 2. 1954–1960-yillar qarluq davri; 3. O'rta Osiyo elatlarining etnogenezi va etnik tarixi davri.

1945-yil 2-iyundan boshlab E.M.Peshchereva tavsiyasi bilan A.A.Semenov rahbarligidagi SSSR Fanlar akademiyasi Tojikiston filiali tarkibidagi Tarix, til va adabiyot institutida avvalo ilmiy kotib sifatida, keyin esa Tojikiston SSR hududida istiqomat qiluvchi o'zbeklarning etnografiyasini o'rganish bo'yicha kichik ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan³⁰. Tadqiqoti mavzusi sifatida janubiy Tojikistonning turkiy aholisini tanlaganda, uni M.S.Andreyev qo'llab-quvvatlagan³¹. Balqis bolaligidan turli etnik guruhlar vakillari bilan muntazam muloqotda bo'lishi natijasida rus, tatar, o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, uyg'ur, turk, qoraqalpoq va turkman tillarini, shuningdek keyinchalik ingliz va nemis tillarini turli darajada o'zlashtirgan³². 1945, 1947, 1948–1950-yillarda laqaylar orasida dala tadqiqotlarini olib boradi³³.

Dastlabki keng ko'lamli tadqiqotlarining natijalari B.X.Karmishevaning nomzodlik dissertatsiyasida umumlashtirildi. 1951-yil 27-dekabrda olima laqaylarda chorvachilikning rivojlanishiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi³⁴. Balqis Xalilovna Karmisheva butun ilmiy faoliyati davomida birinchi navbatda O'rta Osiyo elatlarining etnogenezi va etnik tarixi muammolari bo'lgan.

1954-yilning 7-sentyabridan 8-oktyabrigacha olima O'zbekistonning Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida dala tadqiqotlarini olib boradi. Ularda to'plagan materiallari Tojikiston Fanlar akademiyasining Ahmad Donish nomidagi Tarix instituti³⁵ va 1957, 1961, 1964, 1966, 1971, 1983 va 1986-yillar uchun

²⁹ Tarix fanlari nomzodi, dotsent Dj.Z. Mirzayevning og'zaki ma'lumoti.

³⁰ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 229.

³¹ Кармышева Б.Х. Из опыта моих полевых этнографических исследований в Таджикистане и Узбекистане в 1960-1980-е годы // Этнографическое обозрение. – М., 2001. – № 4. – С. 110.

³² НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 225, 227.

³³ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - АН СССР. Институт этнографии. М., Наука, 1976. – С. 4.

³⁴ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Д. 1370. Л. 260.

³⁵ B.X.Karmishevaning shaxsiy arxivi Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasining A. Donish nomidagi Tarix, arxeologiya va etnografiya institutining Etnografik arxivida saqlanadi.

materiallar Rossiya FA Etnografiya va antropologiya instituti arxivlarida saqlanmoqda³⁶.

1975-yilning 11–12-dekabrida Germaniya Demokratik Respublikasining Leypsig shahrida “Ko‘chmanchilar tarixda va hozirgi zamonda” mavzusida xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi. Unda B.X.Karmisheva “O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda chorvachilikning an‘naviy shakllari tipologiyasi tajribasi (XIX – XX asr boshlari)” mavzusidagi ma‘ruzasida etnografik xaritalarni tuzish paytida ishlab chiqilgan ko‘chmanchi dehqonchilik turlarining tasnifi va ushbu turlarning asosiy xususiyatlarini belgilab berdi. Anjumanda eng katta qiziqish uyg‘otgan ma‘ruza bo‘yicha so‘zga chiqishgan polshalik olim K.Petzold va nemis olimi V.Kyonig B.X.Karmisheva tasnifiga qo‘shimcha ravishda chorvachilik shakllarining ijtimoiy, tarixiy, geografik va boshqa omillar bilan chambarchas bog‘liqligini ta‘kidladilar³⁷.

Har bir qishloqning yoki etnik jihatdan bir xil aholisi bo‘lgan qishloqlar guruhining etnomadaniy qiyofasini tavsiflash uchun to‘g‘ridan–to‘g‘ri kuzatish yoki so‘rovlar orqali moddiy va ma‘naviy madaniyatning turli jihatlari o‘rganilganki, ular etnik mansublikni aniqlashda qo‘shimcha ko‘rsatkich sifatida xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi paragrafi **“B.X.Karmisheva Surxondaryoni etnografik o‘rganish haqida”** deb nomlangan. 1914 va 1917-yilda Sharqiy Buxoroda, jumladan, hozirgi Surxondaryo hududida rus hokimiyatining talabi bilan ma‘muriy yo‘l orqali aholi soni, ekin maydonlari va chorva mollari soni to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘plangan. Karmisheva mazkur ma‘lumotlarni o‘rganish borasida I.P.Magidovich aholini ro‘yxatga olish o‘tkazilmagan, balki beklar va amlakdorlar ishtirokida so‘rov o‘tkazilgan bo‘lsa kerak, degan xulosaga qo‘shiladi³⁸. Sharqiy beklilarning butun aholisi, shuningdek, alohida etnik guruhlar haqida aniq ma‘lumotlar berilmaganligi qayd etiladi³⁹.

O‘rta Osiyoda sovet hokimiyati o‘rnatilishining dastlabki yillarida aholi soni va etnik tarkibini aniqlash maqsadida keng ko‘lamli tadqiqotlar va statistik kuzatuvlar tashkil etilgan. Karmisheva uchun O‘rta Osiyoni tumanlashtirish bo‘yicha maxsus komissiyaning materiallari katta ahamiyatga ega bo‘ldi⁴⁰. 1924-yilda Buxoro amirligi hududida yashovchi tojiklar orasida 20 mingga yaqin kishi o‘z millati nomiga u yoki bu o‘zbek qabilasining nomini qo‘shgan, 63535 kishi esa

³⁶B.X.Karmishevaning shaxsiy arxivi Rossiya Fanlar akademiyasining N. N. Mikluxo-Maklay nomidagi Etnologiya va antropologiya institutining ilmiy arxivida saqlanadi.

³⁷ Руш В., Штейн Л. Международный симпозиум «кочевники в истории и современности» (Лейпциг, 11–12 декабря 1975 г.) Советская этнография. 1976, № 3. – С. 157.

³⁸ Материалы по районированию Средней Азии, кн. 1. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 1. Бухара, Ташкент, 1926. – С. 151.

³⁹ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – АН СССР. Институт этнографии. М., Наука, 1976. – С. 29.

⁴⁰ Материалы по районированию Средней Азии, кн. 1. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 1. Бухара, Ташкент, 1926. – С. 279.

o‘zini chig‘atoy deb atagan⁴¹. Ularni etnik jihatdan tojik yoki o‘zbek deb tasniflash katta muammo edi.

Surxondaryo viloyatida 1928-yildagi birinchi etnolingvistik ekspeditsiyadan to 1954-yildagi Karmisheva safarigacha hech qanday maxsus etnografik tadqiqot o‘tkazilmagan. 1954-yilda Karmisheva janubiy Tojikistondagi o‘zbek aholisining bir katta guruhi bo‘lgan qarluqlarni o‘rganishga kirishadi. Bu guruh o‘z nomi bilan bugungi kungacha eng qadimgi va ko‘p sonli turkiy xalqlardan biri hisoblanadi. Ularni o‘rganish Karmishevani Tojikiston chegaralaridan tashqariga olib chiqdi, chunki ularning alohida guruhlari Surxondaryo viloyati va O‘zbekistonning boshqa hududlarida yashagan. O‘sha paytdayoq olimo tadqiqotlari hududini kengaytirib, kelajakdagi rejalariga qarab yuzlandi. 1954-yilda Karmisheva qarluqlarni o‘rganish bo‘yicha qiyosiy material to‘plash maqsadida Termiz – Angor – Sherobod – Boysun – Machay – Kichik Uradaryo daryosi vodiysi – Koson – Buxoro – Qorako‘l – Olot yo‘nalishida sayohat qildi⁴². Unda Karmishevaga Toshkentda o‘qituvchi bo‘lib ishlayotgan K. Shoniyozov hamrohlik qiladi. Bu uning Surxondaryo hududidagi birinchi rasmiy dala tadqiqotlari edi. Karmishevani mahalliy aholi tomonidan tat, tojik va chig‘atoy atamalarini ishlatilishi hayratga soladi. Olimo butun faoliyati davomida bu atamalar bo‘yicha ma‘lumotlar yig‘adi. B.X.Karmisheva 1983, 1986, 1988-yillarda Surxondaryoda dala tadqiqotlarini amalga oshiradi⁴³.

Xulosa sifatida qayd etish kerak, olimo butun ilmiy faoliyati davomida birinchi navbatda O‘rta Osiyo elatlarining etnogenezi va etnik tarixi muammolari o‘rganishda tanqidiy xolislikka e‘tibor qaratgan. Uning ilmiy qiziqishlari turli mavzularni qamragan bo‘lsa-da, asosiy yo‘nalishi Surxon vohasi etnografiyasini yoritishga xizmat qilgan. Bu boradagi natijalari to‘rtta dala kundaligida batafsil yoritilgan bo‘lib, ular Surxon vohasi aholisi etnografiyasini, ularning xo‘jalik-madaniy hayotini va an‘anaviy turmush tarzini tadqiq etishda muqim ilmiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“B.X.Karmisheva Surxondaryo aholisining etnik tarkibi va joylashuvi haqida”** deb nomlangan ikkinchi bobida Surxondaryo elatlarining qatlamlarga ajralishi, ularning ichki bo‘linishi, hududiy joylashuvi, subetnik guruhlarning kirib kelishi va uning sabablari yoritiladi. Ushbu bobning birinchi paragrafi **“O‘zbeklarning tarkibi va dislokatsiyasi xususiyatlari”** mavzusidadir. B.X.Karmisheva tadqiqotlariga ko‘ra, Surxondaryoning o‘zbek aholisida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida uch qatlam yaqqol ko‘rinib turardi: qabilaviy bo‘linishi bo‘lmagan o‘troq aholi chig‘atoylar, xo‘jalar va qarshiliklar deb atalganlar; ilk qabilalar, qabila bo‘linishini saqlab qolgan guruhlar ya‘ni mo‘g‘ullardan oldingi turkiy qabilalarning avlodlari, Movarounnahrda mo‘g‘ullar

⁴¹ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – АН СССР. Институт этнографии. М., Наука, 1976. – С. 10.

⁴² Кармышева Б.Х. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана, «Краткие сообщения Института этнографии АН СССР», XXVIII, М. 1957. – С. 14–19.

⁴³ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Ф. 23, Оп. 8, Д. 8429. Дневник № 1; Ф. 23, Оп. 8, Д. 8574. Дневник № 1–3.

hukmronligi davridagi turkiy-mo'g'ul qabilalari, o'troq aholi orasida singib ketmagan, ammo yarim ko'chmanchilikni saqlab qolgan turklar, qarluqlar, xalachilar, mo'g'ullar, merishkarlar va boshqalar, keyingi qabilalar XV asr oxiridan Dashti Qipchoqdan Movarounnahrğa kelgan o'zbek qabilalarining avlodlaridir. Karmisheva fikriga ko'ra, Shayboniyxon bilan birga asosan XVI asr boshlarida o'rnatib qolgan, qo'ng'irotlar, yuzlar, laqaylar, semiziylar, kesamirlar, qatag'onlar, do'rmonlar va boshqalar ushbu guruhga mansubdir. Karmishevadan oldin tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar taklif etilgan. Jumladan, M.G.Vahobov o'zbek xalqining uch tarkibiy qismini belgilash uchun turkiyzabon sartlar, Movarounnahr turklari va ko'chmanchi o'zbeklar nomlarini ilmiy atama sifatida qabul qilishni taklif qiladi⁴⁴.

Sharqiy Buxoro hududida chig'atoylarning asosiy qismi XX asr boshida Surxondaryo hududida yashagan, ularning joylashuvi: Sherobodaryoning yuqori oqimidagi qishloqlarda 1127 kishi: Poshxurd vodiysida 1000 kishi; Sherobod vodiysida 500 kishi; Surxondaryoning quyi oqimi va Termiz hududida 2160 kishi. Sherobodaryoning quyi oqimida Sherobod vohasida o'zbek chig'atoylarining bir qancha qishloqlari bo'lgan: Chig'atoy yoki Azan-Chig'atoy, Azon arig'ida Qishloqbozor – bu katta qishloq ikki kvartalga bo'lingan. Arslonboyda chig'atoylar bilan, Xo'jada o'zbek-xo'jalar bilan, Seplanda afg'onlar bilan birga, Navbog'da turk va afg'onlar bilan birga, Gegirdakda turklar bilan birga va Chuyanchida arablar bilan birga yashagan. Chig'atoylarning Surxondaryoning quyi oqimida ularning Manguzar, Salliobod va Chig'atoy qishloqlari mavjud edi. Ushbu qishloqlarda Chig'atoylarning bog' hamda chorbog'lari bor edi⁴⁵.

B.X.Karmisheva dala tadqiqotlari natijasida ilk bor qarshiliklarni alohida guruh sifatida ajratib ko'rsatadi. Mahalliy aholi nutqida “qarshilik” atamasi Qarshi shahri va Qarshi vohasi aholisiga, umumiy tarzda esa Buxoro xonligining g'arbiy hududidan kelib joylashgan aholiga nisbatan ishlatilgan. Mahalliy tasavvurlarga ko'ra, barcha Qashqadaryoliklar “qarshilik” sifatida ta'riflangan. Ular hududga asosan Teshiktog' yo'li orqali kirib kelganlar⁴⁶. Ammo qarshiliklarning ko'pchiligi Qarshi shahri va uning vohasidan bo'lgan. Ular orasida o'zbeklar ko'p bo'lgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash kerak, mahalliy aholi bilan ko'chmanchi qabilalar bilan yaqin aloqada yashab, ular bilan asta-sekin birlashganlar. Urug'lar tarkibida bir xil nomlar uchraydi. Urug' bo'linmalari nomlari ko'pincha shaxslarning ismlari va taxalluslaridan kelib chiqqan va shuning uchun ular o'zgaruvchan bo'lgan. Urug'lar va ularning bo'linmalari ham chetdan kelgan guruhlarining qo'shilishi hisobiga ko'paygan.

Mazkur bobning “**Subetnik elatlar va ularning lokatsiyasi**” deb nomlangan ikkinchi paragrafida subetnik elatlar va ularning joylashuvi haqida so'z boradi. “Subetnik elatlar” deganda ko'pchilik etnoslar bilan taqqoslaganda soni jihatidan kam bo'lgan, ko'pincha muayyan hudud yoki shaharlarda yashaydigan xalqlar

⁴⁴Вахабов М. Г. Формирование узбекской социалистической нации. Ташкент: Государственное издательство Уз ССР, 1961. – С. 44.

⁴⁵ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Ф. 23, Оп. 8, Д. 4621. Дневник № 8, л. 16.

⁴⁶ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Ф. 23, Оп. 8, Д. 4621. Дневник № 9, л. 124.

nazarda tutiladi. Ular milliy tarkibda nisbatan kichik ulushni egallaydi, lekin etnomadaniy jihatdan muhim o‘rin tutadi. Surxondaryoda tojiklar, aksariyat o‘troq xalqlar kabi, lokal guruhlariga bo‘lingan. Masalan, yirik yoki kichikroq tarixiy-madaniy hududlarning mahalliy aholisi, shahar yoki yirik qishloq va ular yaqin joylashgan qishloqlarning aholisi, boysuni, darbandi, panjobi, vandobi singari guruhlar bo‘lgan. Shuningdek, tojiklarning ayrim guruhlarini ular istiqomat qiladigan hududning geografik xususiyatlari asosida ham ajratish mumkin, masalan, kuxistoni – tog‘liklar, viloyati – yirik madaniy vohalar aholisi.

Surxondaryo hududida faqatgina o‘zini chig‘atoylar deb biladigan guruhlar joylashgan edi. N.A.Kislyakov Surxondaryodagi dala tadqiqotlari davomida yosh avlodning, keksa avloddan farqli ravishda chig‘atoy atamasini tan olmasligiga duch keladi⁴⁷. B.X.Karmisheva dala tadqiqotlariga asoslanib Surxondaryoda o‘troq aholini, uning qanday tilda gaplashishidan qat’iy nazar, “tojik” atamasi bilan nomlanishini qayd etadi⁴⁸. Termizdagi Salovat (Karmisheva Sallaabad shaklida yozgan) va Manguzar aholisining tili o‘zbek tili bo‘lsa-da, ularni atrofdagi aholi, ayniqsa qo‘ng‘irotlar tojik deyishgan. Karmisheva bunday holga Sherobod, Denov va Surxondaryoning boshqa qishloqlarida ham guvoh bo‘ladi. Lekin, Karmishevaga ko‘ra, o‘troq xalqqa nisbatan “tojik” atamasidan ko‘ra Surxondaryoda “chig‘atoy” atamasi ko‘proq ishlatiladi⁴⁹. I.Hidoyatov tomonidan Karmishevaga berilgan ma’lumotga ko‘ra, Surxon vohasida joylashgan, madaniyati chig‘atoylarga monand bo‘lgan tojiklarning bir qismi o‘zlarini “hisori” atamasi bilan nomlashgan⁵⁰.

Sayrob nomi ostida 6 ta qishloq to‘plangan edi: Chinor, Kabuti, Paykob, Obgir, Jindikamar va Qiziljar. Karmisheva ta’kidlashicha, Sayrobda 3 ta urug‘ bo‘lgan: *Kanoni*, *Shoxistoni*, *Sanoni*⁵¹. Dala tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, hozirda Sayrob qishlog‘i aholisi asosan Turkoni va Mindaha urug‘lariga bo‘linadi. Ushbu urug‘lar o‘z navbatida bir necha avlodlarga ajraladi. Jumladan, *Avlodi Arbob*, *Avlodi Hasan*, *Avlodi Keldik*, *Avlodi Ortiq*, *Avlodi Nafas*, *Avlodi Qozixo janazar*, *Avlodi Mardon* va *Avlodi Mayda* qayd etiladi. Avlodi Keldik tarkibiga *Avlodi Burxoni*, *Avlodi Valigi*, *Avlodi Kapptagi*, *Avlodi Nazirxoni* va *Avlodi Boqigiy* kiradi. Shuningdek, Avlodi Mayda tarkibida *Avlodi Kamoliy*, *Avlodi Naimiy* hamda *Avlodi Ermahmatiy* mavjud⁵².

Janubiy O‘zbekistonda arablar tojik yoki o‘zbek tillarida gaplashib, asosan kichik guruhlar bo‘lib yashagan. 1924-yilda 763 kishi ro‘yxatga olingan bo‘lib, shulardan Surxondaryo hududida Sherobodda 132 kishi, Boysunda 6 kishi, Denov

⁴⁷ Кисляков Н.А. Сайробские таджики // Советская этнография. 1965, № 2. – С. 26–27.

⁴⁸ Кармышева Б.Х. Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков (историко-этнографические данные) // СЭ. 1960. № 1. – С. 3.

⁴⁹ Кармышева Б.Х. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана. «Краткие сообщения Института этнографии АН СССР», XXVIII, М. 1957. – С. 16–18.

⁵⁰ Кармышева Б.Х. К истории формирования населения южных районов Узбекистана и Таджикистана // СЭ, 1964, № 6. – С. 97–98.

⁵¹ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Ф. 23, Оп. 8, Д. 4756. Дневник № 1, л. 18.

⁵² Dala yozuvlari, Boysun tumani, Sayrob qishlog‘i, 2024-yil.

hududida 150 kishi yashagan⁵³. Surxondaryodagi arablar kelib chiqishi jihatidan o‘zlarini qarshilik arablarga va balxlik arablarga ajratishgan⁵⁴.

Sherobod bekligida joylashgan katta Rabatak qishlog‘ining o‘zbekzabon arablari rabatak deb atalgan (uch yuz uyli arablar). Bu qishloq 3 ta – Shomal, Boy va Sari dahalardan tashkil topgan bo‘lib, 1926-yilda ularda jami 228 ta xo‘jalik bo‘lgan⁵⁵. Sherobod shahrining ikki choragida – Taroqli (Karmisheva Taraxli tarzida keltirgan) va Balx guzarlarida ham o‘zbekzabon arablar yashagan. Kasbi qassobchilik edi.

“B.X.Karmisheva talqinida Surxondaryo aholisi shakllanishining tarixiy jarayonlari” nomli uchinchi bobning birinchi paragrafi **“O‘zbeklar konsolidatsiya jarayonida”** mavzusida bo‘lib, unda aholi shakllanishi tasvirlangan. B.X.Karmishevaning 1976-yilda nashr etilgan “Tojikiston va O‘zbekistonning janubiy tumanlarining etnik tarixi bo‘yicha ocherklar” asarida o‘zbeklarning kelib chiqishi tarixini millatning birlashishi jarayoni sifatida tasvirlaydi⁵⁶. Uning fikricha, O‘rta Osiyoda ko‘p asrlar davomida tili turlicha, lekin madaniyati yaqin bo‘lgan ikki millat – tojiklar va o‘zbeklar o‘zaro yaqin munosabatda rivojlangan. Tojiklarning ham, o‘zbeklarning ham eng qadimiy ajdodlari O‘rta Osiyoning asl, tub aholisi bo‘lib, ular bilan turli turkiy qabilalar va elatlar o‘rtasida yaqinlashuv kuzatilgan. Ularning O‘rta Osiyoga kirib kelishi miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida boshlangan va milodning VI asrda yanada qizg‘in tus oldi. Turklarning yaqinlashuvi turkiy va eronzabonlarning birlashuviga aylanadi. Bu ikki komponentning muayyan mintaqadagi soni va siyosiy roliga qarab, eroniy aholi tili yoki turkiy tillar ustunlik qilgan. Chig‘atoy ulusining asosiy harbiy kuchi bo‘lgan ko‘chmanchi turmush an‘analarini qisman saqlab qolgan qabilalar Temur va temuriylar davlatida katta rol o‘ynagan. Ko‘chmanchi turkiyzabon qabilalarning O‘rta Osiyoga so‘nggi keng ko‘lamli kirib kelishi XV asr boshlaridan sodir bo‘lgan. XVI asrda ushbu qabilalar Temuriylar davlatini bosib olgan Shayboniyxon qo‘shinlari tarkibida Dashti Qipchoq ko‘chmanchi o‘zbeklarining qabilalari sifatida ko‘chib kelishgan. Bu qabilalarning O‘rta Osiyoga ko‘chirilishi butun XVI asr davomida davom etadi⁵⁷. “O‘zbek” etnonimining kelib chiqishi masalasida Karmisheva B.A.Ahmedovning talqiniga qo‘shiladi. Unga ko‘ra, “o‘zbek” atamasi Oltin O‘rda xoni O‘zbekxondan avval ham muomalada bo‘lib, “o‘z-o‘ziga bek” ma’nosida ishlatilgan⁵⁸.

⁵³Материалы по районированию Средней Азии, кн. 1. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 1. Бухара, Ташкент, 1926. – С. 279.

⁵⁴Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – АН СССР. Институт этнографии. М., Наука, 1976. – С. 252.

⁵⁵Материалы Всесоюзной переписи населения 1926 г. в Узбекской вып. 1. Поселенные итоги, Самарканд, 1927. – С. 267.

⁵⁶Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – АН СССР. Институт этнографии. М., Наука, 1976. – С. 161–164.

⁵⁷Мукминова Р. Г. К вопросу о переселении кочевых узбеков в начале XVI в. — ИАН УзССР, 1954. № 1. – С. 80.

⁵⁸ Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. АН СССР, Институт народов Азии; Академия наук Узбекской ССР, Институт востоковедения Москва: Наука, 1965. – С. 11–17.

Tilshunoslik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilining grammatik tuzilishi va uning asosiy lug'at tarkibi taxminan XIV-XV asrlarda shakllangan holda bugungi kungacha saqlanib qolgan, ya'ni ko'chmanchi o'zbeklar kelishganda til shakllanib, fundamental asosga ega bo'lgan⁵⁹. Arxeologik va etnografik materiallar O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i aholisi madaniyatining davomiyligini ko'rsatadi. Antropologik ma'lumotlarga ko'ra, o'zbeklarning antropologik tipi qadimiy kavkaz irqiy tipiga asoslangan bo'lib, unga mongoloid belgilar qo'shib ketgan⁶⁰. Machay qadimiy aholi manzillaridan biri bo'lib, u chuqur darada joylashgani bois shunday nom olgan. Toponim etimologik jihatdan fors-tojikcha "mas shoh" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "chuqur joy" ma'nosini bildiradi. Qishloq quyidagi yetti kichik qishloq yoki hududlardan tashkil topgan: Pastki Machay, O'rta Machay, Gaza, Xojadeyak, Yuqori Machay, Qizilnavr, Kentala (Kengdala)⁶¹.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi **"Tojiklarning etnik dinamikasining lokal xususiyatlari"** deb atalib tojik xalqining mahalliy xususiyatlari tahlil qilingan. Tojik va o'zbekzabon chig'atoylarning kelib chiqishini birinchilardan tahlil qilgan olim I.P.Magidovich Chig'atoylarni Chig'atoy ulusi mo'g'ullarining avlodlari deb hisoblagan. U tojik tilida so'zlashuvchi chig'atoylarni tojiklar tomonidan assimilyatsiya qilingan chig'atoy mo'g'ullarining avlodlari qatoriga kiritgan⁶².

A.K.Pisarchik bilan Ko'lobda dala tadqiqotlari davomida Karmisheva chig'atoylarga birinchi navbatda tojiklar va qarluqlar kirganligi to'g'risida ma'lumotlar yig'adi⁶³. Boysun bekligi aholisi orasida olti urug' tortuvli va uch urug' chig'atoy an'anaviy ibora mavjud bo'lgan. Chig'atoylarning bu uch urug'i sifatida tojiklar-chig'atoylar, xo'jalar va tog'chilar nazarda tutilgan. Tortuli esa qo'ng'iroq qabilasining bir bo'limi bo'lgan⁶⁴. N.A.Kislyakov Sayrobda "Chig'atoy" atamasiga "tog'larga tarqalib ketgan tojiklar" degan izoh olgan. Karmisheva fikricha ushbu so'zni turkiycha "chagat – tog' yonbag'ri" ma'nosi bilan izohlanganligiga e'tibor qaratgan. Kislyakov Sayrobda oqsoqollar o'zlarini chig'atoy deb atasa, yoshlar buni inkor etishiga guvoh bo'lgan⁶⁵. Demak, XX asr o'rtalaridan "chig'atoy" mohiyati o'zgara boshlagan. Karmisheva mazkur masalaga 1957-yildayoq o'zining munosabatini bildirgan edi⁶⁶. Masalaning O'rta

⁵⁹Щербак А. М. К истории образования узбекского национального языка. Вопросы языкознания, 1954, № 6. – С. 109.

⁶⁰Гинзбург В. В. Расовые типы Средней Азии и их формирование в процессе этногенеза ее народов, ТТГУ, вып. 235. Исторические науки, кн. 39, 1964. – С. 132.

⁶¹ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Yuqori Machay qishlog'i. 2025-yil.

⁶² Материалы по районированию Средней Азии, кн. 1. Территория и население Бухары и Хорезма, ч. 1. Бухара, Ташкент, 1926. – С. 221.

⁶³Писарчик А.К., Кармышева Б.Х. Опыт сплошного этнографического обследования Кулябской области. – Известия Отделения общественных наук. АН Тадж ССР, вып. 3. Сталинабад, 1953. – С. 81.

⁶⁴ НА ИЭА РАН. Личный архив Б.Х. Кармышевой. Ф. 23, Оп. 8, Д. 4756. Дневник № 2, л. 128.

⁶⁵ Кисляков Н.А. Сайробские таджики // Советская этнография. 1965, №2. – С. 26.

⁶⁶ Кармышева Б.Х. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана, «Краткие сообщения Института этнографии АН СССР», XXVIII, М. 1957. – С. 14–19.

Osiyo etnik tarixida muhimligini e'tiborga olib, Karmisheva "chig'atoy" atamasiga qayta-qayta murojaat qilgan.

XX asr birinchi choragida poshxurdliklarning o'zlari 250 ta xonadonga ega bo'lib, ular to'rt dahaga bo'lingan. Ularga Poshxurd asoschilari avlodlari bo'lgan turkmanlarning ikki dahasi, xitoy, batash va qutchi qabilalarining dahalari kiradi. Bu yerdagi vandobliklarning esa 500 ta xonadoni mavjud bo'lib, ular Sho'rko'l va Xonaqa dahalariga ega bo'lishgan. Chakob aholisi esa 150 ta xonadonni tashkil qilgan. Ushbu qishloq Poshxurd vodiysidan tashqarida joylashgan bo'lsa-da, bir buloqdan suv olgani uchun Poshxurd tarkibiga kiritilgan. Shuning uchun ham ular Poshxurd haqida "ming uyli bog'" yoki "ming uyli tutashgan bog'-u chorbog'" deyishgan. Hozirda beshta guzar mavjud⁶⁷.

Chig'atoylar Passurxining shimolidagi Ko'chkak va uning yuqorisida Avlodda istiqomat qilgan. Ko'chkak so'zi Ko'shkak, ko'shk – qasr, ak – foshchada maydalikni bildiradigan qo'shimcha deganidir. Dala tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, Boysun tumanining Ko'chkak qishlog'ida hozirda tojikzabon 21 ta guruh yashaganligi aniqlandi. Ular orasida *xojizardakilar, sangardakilar, baroqilar, chag'riylar, sherbulbuliylar, g'uzoriylar, xardurilar, tog'chilar* va boshqa guruhlar mavjud. Mahalliy xabarchilarga ko'ra, xojizardakilar asl kelib chiqishi jihatidan Balx hududidan ko'chib kelganlar. Sangardakilar (yoki Atovlilar) esa aslida Boysunlik bo'lgan. Aholi tarkibi shakllanish jarayonida xojizardakilar va chag'riylar tub aholi sifatida saqlanib qolgan bo'lsa, qolgan elatlar keyingi davrlarda turli sabablar bilan bu hududga ko'chib kelgan⁶⁸.

Poshxurd vodiysining shimolida Panjob qishlog'i aholisini Karmisheva *tojik-chig'atoy* deb yuritadi. Panjob hududida aholi genealogik tuzilishiga ko'ra, asosan besh asosiy urug' mavjud bo'lib, ular *Avlodi Sanoni, Avlodi Sherxoniy, Solihi Kanoni, Oshiqiy, Shahistonagiy* urug'laridan iborat. Avlodi Sanoni tarkibiga *Avlodi Maxmatamin, Avlodi Askar, Avlodi Kattaali, Avlodi Oqnazar va Avlodi Qozi* kiradi. Avlodi Sherxoniy urug'i doirasida *Avlodi Rafiq, Avlodi Boqiy hamda Avlodi Boboqul* qayd etiladi. Solihi Kanoni urug'i *Avlodi Kanoni va Avlodi Solih* avlodlaridan tashkil topgan. Oshiqiy urug'i tarkibida *Avlodi Molik, Avlodi Sulaymon va Avlodi Said* mavjud. Shuningdek, Shahistonagiy urug'i *Avlodi Gadoyali, Avlodi G'ussa, Avlodi Xo'jayor hamda Avlodi Pir* shoxchalarini o'z ichiga oladi⁶⁹.

Uchinchi bobning **"Subetnik guruhlar assimilatsiya va akkulturatsiya jarayonida"** mavzusidagi uchinchi paragraf XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxondaryoda kam sonli bo'lgan xo'jalar, arablar, lo'lilar, qozoqlar, turkmanlar va boshqa xalqlar tahliliga bag'ishlangan. Tojiklar va o'zbeklar orasida xo'jalar va sayyidlar alohida guruhlar bo'lgan. Aholi ularni ko'pincha umumiy xo'ja nomi bilan atagan. B.X.Karmisheva xo'jalar va sayyidlar yuzasidan alohida izlanishlar olib bormagan bo'lsa-da boshqa etnik guruhlarini o'rganish doirasida mavzuga

⁶⁷ Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Poshxurt qishlog'i, 2024-yil.

⁶⁸ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Ko'chkak qishlog'i, 2024-yil.

⁶⁹ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Panjob qishlog'i, 2024-yil.

to'xtalgan. Ko'pgina hollarda olim mavzu bilan maxsus shug'ullangan hamkasblarining ishlariga tayangan. Buxoro xonligida ham boshqa musulmon mamlakatlaridagi kabi imtiyozli tabaqalar qatoriga kirganlar. Muhammadning qizi Fotima va uning eri, Hazrati Alidan tug'ilgan avlodlari hisoblangan sayyidlar alohida e'zozlangan. O'g'li Husayn avlodidan bo'lgan sayyidlar Husayniy, ikkinchi o'g'li Hasanning avlodlari esa Hasaniy deb atalgan. Xo'jalar o'zlarining kelib chiqishini payg'ambarning sahobalari yoki ba'zi avliyolar bilan bog'laganlar. Sayyidlar va xo'jalarning har bir urug'ining shajarasi va nasl-nasabi bo'lib, ularning payg'ambar va uning sahobalaridan kelib chiqishini tasdiqlagan. Bu nasabnomalarning aksariyati soxta bo'lib, ularning muddati arablar istilosi va ularning O'rta Osiyodagi hukmronligi davridan ancha kechroq ko'rsatilgan⁷⁰. Termiz Movarounnahr shaharlar orasida avliyolar va sahobalar makoni sifatida mashhur bo'lgan⁷¹. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Termiz Sayyidlarining avlodlari Termiz yaqinidagi Solihobod qishlog'ida yashagan⁷².

Qashqadaryoning quyi oqimidagi Qamashi qishlog'i arablari o'rtasida o'tkazilgan antropologik tadqiqot L.V.Oshaninni Arabiston arablarining janubiy guruhi – dolixosefal O'rta er dengizi tipidagi arablar emas, balki O'rta Osiyoga shimoliy arablar, G'arbiy Osiyo irqining braxosefal tipi ko'chib kelgan degan xulosaga kelgan⁷³. Biroq Surxondaryo viloyati arablarini tekshirgan K.Najimovning materiallaridan ma'lum bo'lishicha, O'rta Osiyoda nafaqat braxosefal Mesopotamiya arablari, balki janubiy, dolixosefal arablar ham yashagan⁷⁴.

B.X.Karmisheva olim X.X.Nazarov lo'li yoki jugi guruhiga ayniqsa katta e'tibor berganligini e'tirof etgan. O'rta Osiyo lo'lilarining turmush xususiyatlari, tili va antropologik ko'rinishi hamda O'rta Osiyoga kirish vaqti va yo'li sababli uch guruhga bo'linadi: birinchisi – mahalliy lo'lilar bo'lib, uzoq tarixga ega bo'lganligi sababli ular o'zlarini O'rta Osiyoning tub aholisi deb bilishgan, ular Mugat yoki Mugati Tubjoy, ya'ni mahalliy lo'lilar deb atalgan. Ularning atrofida yashagan o'zbek-tojik aholisi ularni lo'li, jo'gi, multoni, mazang va tavoktarosh deb atashgan; ikkinchisi – afg'on lo'lilari, ular o'z nomi Afg'on Mugat, qora lo'li, afg'on jugi deb atashgan. Uchinchisi hind lo'lilari bo'lib, ularning o'z nomi Mugati Hundi yoki Pokiraj deb atashsa, mahalliy aholi ularni hindustoni lo'li yoki hindustoni jo'gi deb atashgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash kerak, bu jarayon oddiy assimilyatsiya yoki tilning o'zgarishi emas edi – ikki madaniyatning sintezi natijasida ikki millat shakllandi, ularning har birining madaniyati bir-biriga yaqin bo'lsa-da, bir xil emas edi. Surxondaryoda ayrim turkiylar ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanishni

⁷⁰ Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана, т. II, ч. 1, М., 1963. Сочинения, – С. 422.

⁷¹Хофиз Таниш ибн Мир Мухаммад Бухорий, Абдуллонома. Шарафномаи шохий. т. I. Тошкент, 1966. – Б. 272.

⁷² Dala yozuvlari, Termiz shahri, 2024-yil

⁷³Ошанин Л.В., Зезенкова В.Я. Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии, Ташкент: Изд-во Акад. наук Уз ССР, 1953 – С. 50.

⁷⁴Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхандарьинской области (в связи с некоторыми вопросами этногенеза), ТСАГУ, пов. сер., вып. 143. Биологические науки, кн. 35, Ташкент, 1958. – С. 45.

davom ettirganlar va tog'larda eroniyzabon aholi uzoq vaqt davomida o'zlarining tillari va madaniy xususiyatlarini saqlab qolishgan.

XULOSA

“B.X.Karmishevaning Surxon-Sherobod vohasidagi etnik guruhlarini o'rganishdagi o'rni” mavzusi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

1. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida O'zbekiston etnologiya fanida milliy etnogenez, elatlar tarixi, etnik tarkib va mintaqaviy o'ziga xoslikni o'rganish masalalari yangi ilmiy bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda tarixiy-etnografik maktablar shakllanib, O'zbekiston xalqlarining kelib chiqishi, etnik taraqqiyoti, madaniy merosi va an'anaviy turmush tarzini chuqur o'rganishga e'tibor kuchaydi.

2. Tadqiqot davomida sovet davrining yirik etnografi B.X.Karmisheva ilmiy merosini tahlil etish, xususan, uning Surxondaryo elatlarining kelib chiqishi, etnik tarkibi va madaniyati haqidagi qarashlarini o'rganish masalasi bugungi kunda alohida dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur dissertatsiyada ana shu dolzarb yo'nalish keng ko'lamda, tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy-etnografik yondashuv asosida o'rganilgan bo'lib, u O'zbekiston etnografiya fanida yangi ilmiy konsepsiyaning shakllanishiga xizmat qiladigan muhim tadqiqot hisoblanadi.

3. Mavzuni ilmiy o'rganish davrida B.X.Karmishevaning hayoti va faoliyati, uning O'rta Osiyo, xususan, janubiy O'zbekiston xalqlarining etnografiyasi va etnik tarixini o'rganishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Muallif Karmisheva tomonidan olib borilgan dala tadqiqotlari, arxiv hujjatlari, ilmiy nashrlar va yozma manbalar asosida Surxondaryo viloyatida yashovchi elatlarning shakllanish jarayonini tarixiy-madaniy kontekstda o'rganadi.

4. Tadqiqotda Surxondaryo aholisi tarkibidagi asosiy etnik qatlamlar – chig'atoylar, xo'jalar, yuz, qo'ng'iroq, qarluq va boshqa ko'plab guruhlari, shuningdek, tojik, arab, afg'on, turkman kabi xalqlar tahlil qilinadi. Karmisheva dala kuzatuvlari asosida Surxondaryoning XIX – XX asr boshlarida shakllangan uch qatlamli etnik tuzilmasini aniqlagan. Mavzuga yondashuvni zamonaviy etnologiya mezonlari bilan solishtirib, mintaqaning etnik tarixiga oid yangicha ilmiy xulosalar ishlab chiqqan. Unga ko'ra, Surxondaryo aholisi turli tarixiy davrlarda Dashti Qipchoq, Movarounnahr, Buxoro amirligi va Xuroson madaniy muhitlari bilan uzviy aloqada bo'lgan. Bu esa mintaqaning etnik tarkibi va madaniy xilma-xilligini shakllantirgan asosiy omil bo'lgan.

5. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Karmishevaning Surxondaryo bo'yicha dala tadqiqotlari natijalari ilk marotaba tizimli va kompleks tarzda tahlil qilinib, zamonaviy etnologiya nazariyalari nuqtai nazaridan qayta baholangan. Tadqiqotning nazariy xulosalari va amaliy natijalari asosida Karmisheva merosini tizimli nashrga tayyorlash, uning dala kundaliklarini ilmiy muomalaga kiritish, arxiv materiallarini raqamlashtirish hamda ochiq ilmiy platformalarga joylashtirish kabi yo'nalishlarda muhim takliflar ishlab chiqilgan.

6. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek etnologiyasi taraqqiyotida Karmisheva

maktabining ilmiy merosini xalqaro miqyosda e'tirof etish uchun zamin yaratadi. Umuman olganda, dissertatsiya O'zbekiston tarixshunosligida ilgari maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan B.X.Karmisheva ilmiy merosini kompleks yondashuv asosida tahlil qilgan, Surxondaryo elatlarining kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi, madaniy taraqqiyoti hamda etnik aloqalar tizimi bo'yicha keng ilmiy xulosalar bergan.

Mavzuga doir ilmiy tavsiyalar va takliflar:

1. B.X.Karmisheva arxiv merosini raqamlashtirish va ochiq ilmiy platformalarga joylashtirish. Uning dala kundaliklari, yozishmalari, fotosuratlari va ekspeditsiya materiallarini zamonaviy raqamli formatda nashr etish orqali O'zbekiston etnologiya faniga yangi ilmiy manba bazasini yaratish zarur.

2. Surxondaryo viloyati bo'yicha "Hududiy etnografik atlas" tuzish. Karmisheva to'plagan materiallar va zamonaviy dala tadqiqotlari asosida mintaqaning etnik tarkibi, urf-odatlari, an'anaviy xo'jalik turlari va joylashuv dinamikasini aks ettiruvchi interaktiv atlas yaratish maqsadga muvofiq.

3. Markaziy Osiyo ayol etnograflarining ilmiy merosini kompleks o'rganish. Karmisheva tajribasidan kelib chiqib, sovet davrida faoliyat yuritgan ayol olimlarning ilmiy hissasini tizimli o'rganish orqali gender tarixshunosligi va etnologiya integratsiyasini rivojlantirish lozim.

4. Etnologik ekspeditsiyalarni zamonaviy metodlar bilan tiklash. Karmisheva qo'llagan dala tadqiqot uslublarini GIS xaritalash, audio-vizual hujjatlashtirish va raqamli arxivlashtirish texnologiyalari asosida qayta joriy etish orqali Surxondaryo va unga tutash mintaqalarning etnik-madaniy jarayonlarini chuqur o'rganish imkonini yaratish.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТУРАЕВ ШЕРЗОД ГУЛБОЙ УГЛИ

**РОЛЬ Б.Х.КАРМЫШЕВОЙ В ИЗУЧЕНИИ ЭТНИЧЕСКИХ ГРУПП В
ОАЗИСЕ СУРХАН-ШЕРАБАД**

07.00.07 – Этнография, этнология и антропология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Термез – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2023.2.PhD/Tar1510 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, английский, русский) размещён на веб-странице Научного совета (www.tersu.uz) и на информационно — образовательном портале “ZiyoNET” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Мирзаев Джалалитдин Зайниевич
Кандидат исторических наук, доцент.

Официальные оппоненты:

Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна
доктор исторических наук (DSc), доцент

Акчаев Фаррух Шавкатович
доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:


Чирчикский государственный педагогический университет


Защита диссертации состоится « 2 » марта 2026 года в 10.00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 по присуждению ученых степеней при Термезском государственном университете. (Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрирована под номером 392). Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (0 376) 223-13-11.)

Автореферат диссертации разослан « 15 » марта 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 19 от «15» марта 2026 года).




Т.Р.Пардаев
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор


О.А.Хамидов
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам, доцент


Х.Э.Холмунинов
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В результате усиления проблемных этнополитических процессов в различных регионах мира в истории человечества формируются новые трансформационные этапы, которые обуславливает необходимость пересмотра вопросов происхождения народов, их культурного наследия, социального развития и национальной идентичности на основе новых научных подходов. Изучение данных процессов на уровне мирового сообщества осуществляется в широком масштабе в рамках программ, разработанных Международным союзом антропологических и этнологических наук (ICAES), действующим под эгидой ЮНЕСКО с 1948 года, в реализации которых проводятся комплексные практические мероприятия.

В настоящее время в таких научно развитых странах, как США, Великобритании, Германии, Франции, Российской Федерации, Японии и Республики Кореи, функционируют научные центры, занимающиеся изучением истории народов Центральной Азии. Научно-исследовательскими учреждениями реализуются проекты, посвящённые происхождению народов и их этнической истории, в рамках которых достигнуты определённые результаты в изучении образа жизни, материальной и духовной культуры, а также процессов формирования национального самосознания. В данной сфере актуальным вопросом является анализ территориального расселения народов, процессов объединения различных групп, а также особенностей их обычаев, традиций, ценностей и обрядов.

В Новом Узбекистане проводится практическая работа по укреплению межнациональных отношений, изучению происхождения узбекского народа, его этнической истории, традиционных форм хозяйственной деятельности и специфики материальной и духовной культуры. В этом контексте особое значение имеют труды и научное наследие исследователей, занимавшихся данной проблемой. Как отмечается: «В великой истории ничто не исчезает бесследно. Она сохраняется в крови народов, в их исторической памяти и проявляется в практической деятельности. Именно поэтому она обладает такой мощью»¹. Сохранение, изучение и передача исторического наследия из поколения в поколение определены как одно из важнейших приоритетных направлений государственной политики, которая обуславливает актуальность данной темы. В рамках реализуемой в Узбекистане Стратегии нового развития, благодаря практическим реформам, определены приоритетные задачи по усилению национального самосознания в обществе, повышению качества духовно-просветительской работы и росту эффективности научных исследований².

Данная диссертационная работа в определенной степени послужит в

¹ Mirziyoyev Sh.M. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43–sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/34> [дата обращения: 01.02.2026]

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

реализации задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан: от 26 мая 2020 года № УП-6000 «О мерах по дальнейшему повышению роли и влияния сферы культуры и искусства в жизни общества», от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии Узбекистан – 2030», других нормативно – правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления в социальном, правовом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Научное наследие крупного этнографа Б.Х.Кармышевой (1916–2000) до настоящего времени не являлось объектом специального научного анализа. Работы, в которых наследие Б.Х.Кармышевой анализируется прямо или косвенно, можно разделить на следующие три группы³:

К первой группе относятся статьи исследователей советского периода. В них были опубликованы статьи на труды Б.Х.Кармышевой, а также обсуждались её научные выводы⁴.

Ко второй группе относятся работы зарубежных авторов⁵. В них наряду с анализом жизни и научной деятельности Б.Х.Кармышевой рассматривается её вклад в изучение различных этнических групп Центральной Азии⁶.

³ Количество исследователей, использовавших труды Б.Х. Кармышевой и высказавших к ним своё отношение, столь велико, что в рамках одной диссертации охватить их всех не представляется возможным. В связи с этим мы ограничились авторами, работавшими и продолжающими работать в рамках научной специальности 07.00.07 — этнография, этнология и антропология.

⁴ Алексеев В.П., Башилов В.А. Рецензия на кн.: Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным). М., 1976 // Советская этнография. – 1977. – № 5. – С. 171–174; Шаниязов К.Ш. Рецензия на кн.: Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана // ОНУ. – 1977. – № 4. – С. 64–66; Руш В., Штейн Л. Международный симпозиум «кочевники в истории и современности» (Лейпциг, 11–12 декабря 1975 г.) Советская этнография. 1976, № 3. – С. 157–160.

⁵ Губаева С.С. Балкис Халиловна Кармышева (13.07.1916 – 09.10.2000) // Этнографическое обозрение. 2001. № 3. – С. 154–157; Там же. Губаева С. С. Слово об учителе // Оазисы Шелкового пути: современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии (далее: Оазисы Шелкового пути...). – М., 2018. – С. 21–25; Там же. Б.Х. Кармышева и ее творчество // Кармышева Б.Х. Каратегинские киргизы. – М., Наука, 2009. – С. 3–18; Абашин С.Н. «В лабиринтах этногенеза и этнической истории»: труды Б.Х. Кармышевой как наследие советской этнографии // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 32–45; Лунина Е. О Балкис Халиловне Кармышевой // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 17–23; Салимов Т.У. Воспоминание о Б.Х. Кармышевой // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 90–95; Список основных работ доктора исторических наук Б.Х. Кармышевой. (К 40–летию научной деятельности). Советская этнография. 1986. № 4. – С. 146–148.

⁶ Додхудоева Л. Н. «Фокусный центр» исследований профессора Б.Х. Кармышевой в Таджикистане // Оазисы Шелкового пути... – С. 68–80; Джураева Н. Полевые исследования этнических групп киргизов джиргиталия Б.Х. Кармышевой в 1954 г. // Историк (научный журнал). – М., 2016. – № 2 (6). – С. 59–62; Джураева Н. Вопросы традиционной культуры национальных меньшинств в трудах Б.Х. Кармышевой 70–80- х гг. XX века // Историк (научный журнал). – М., 2015. – № 2 (6). – С. 122–126; Джураева Н. Фотоколлекция этнографа Б.Х.

К третьей группе относятся анализы, представленные в статьях и диссертациях, написанных узбекскими учёными в период независимости⁷.

Следует отметить, что к настоящему времени вопросы расселения народов, проживающих не только на территории Узбекистана, но и в регионе Южного Узбекистана, история их формирования, этногенез и историография стали самостоятельным объектом научных исследований. В частности, изменения в материальной и духовной культуре народов, их традициях и ценностях, а также трансформационные процессы, наблюдаемые в социально-экономической жизни, широко освещаются в современных этнологических исследованиях. Такие исследователи, как М. Файзуллаева⁸, Н. Турсунов⁹, А. Курбонов¹⁰, М. Усмонов¹¹, И. Умаров¹², Г. Ахмедова¹³, С. Ахмедов¹⁴, О. Дуланов¹⁵, И. Каршиев¹⁶, М. Рузиева¹⁷ изучали различные аспекты этнографии

Кармышевой и её значение для исследования культуры этнических меньшинств Центральной Азии // Вестник педагогического университета. – Душанбе. 2013. – № 1 (50). – С. 95–97; Юсуфбекова З.У., Шовалиева М.С. Карлуки в дневниковых записях Б.Х. Кармышевой // Оазисы Шелкового пути... – М., 2018. – С. 81–90.

